

## Ilmiy faoliyat hisoboti

Shu yilning 31-yanvar kuni V bino 603-xonada "5A3010201-Elektr ta'minot(suv xo'jaligida)" mutaxassisligi 1-bosqich magistrantlarining shaxsiy kalendar ish rejasida ko'rsatilgan ishlarni bajarish bo'yicha 2019-2020 o'quv yilining I semestri davomida amalga oshirgan ishlari bo'yicha topshirgan hisobotining muhokamasi bo'lib o'tdi.



Ushbu ilmiy faoliyat hisobotida 118(uzb),119(rus)-guruh magistrantlari o'zlarining shaxsiy kalendar ish rejasida belgilangan ilmiy faoliyatni bajarish yuzasidan tayyorlagan taqdimotlari kafedra professor-o'qituvchilari va magistratura talabalarining ilmiy rahbarlari ishtirokida eshitildi. Taqdimot davomida kafedra professor-o'qituvchilari har bir magistrant taqdimoti bo'yicha o'zlarini qiziqtirgan savollarga qoniqarli javob olishdi. Hisobot so'ngida taqdimotdagi kamchiliklar aytib o'tildi va ularni to'g'rilashlarga tavsiyalar berildi hamda komissiya a'zolari tomonidan tegishli tartibda baholandi.

**ETvaQTEM kafedrasida laboranti Abdug'aniev N. axboroti**

**Institut matbuot xizmati Rahimboy Jumaniyozov**